

## DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT TADBIRLARINI O'TKAZISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.

**A. R. Suvankulov**

*i.f.n.*

**Meliqo'ziyeva Dilrabo**

*TMI magistranti*

**Elchibayeva Dinara**

*BFA tinglovchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada, davlat sektorida ichki audit chora-tadbirlarini belgilash, ichki audit xizmati tomonidan ichki audit ob'ektlari bilan bog'liq risklar darajasini aniqlash, ichki audit bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, davlat sektorida ichki audit choralarini risklarini baholash va muammolarni aniqlash jarayoni. va ichki audit tadbirlari davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar muhokama qilinadi. Va shuningdek maqolada kompaniya muammolarini hal qilishning samaradorligini va investitsion jozibadorligini oshirish uchun ichki auditni tashkil etish masalalari ko'rib chiqildi. Iqtisodiy va ilmiy nuqtayi nazaridan, yuqorida keltirilgan muammolar va taklif qilingan yechimlar yomon emas, balki o'rGANISH uchun zarur ahamiyatga ega.*

**Kalit so'zlar:** *ichki audit, ichki nazorat tizimi, nazorat tartib-qoidalari, moliyaviy hisobot, ichki audit xizmati, risklarni baholash, xavf omillari, xavf darajasi.*

**Аннотация:** В данной статье определены меры внутреннего аудита в государственном секторе, определение службой внутреннего аудита уровня рисков, связанных с объектами внутреннего аудита, разработка плана мероприятий по внутреннему аудиту, оценка эффективности риски мер внутреннего аудита в государственном секторе и процесса выявления проблем. обсуждаются вопросы, которые могут возникнуть в ходе деятельности внутреннего аудита. А также в статье рассмотрены вопросы организации внутреннего аудита для повышения эффективности решения проблем компании и инвестиционной привлекательности. С экономической и научной точки зрения вышеизложенные проблемы и предлагаемые решения не являются плохими, но весьма важными для изучения.

**Ключевые слова:** внутренний аудит, система внутреннего контроля, контрольные процедуры, финансовая отчетность, служба внутреннего аудита, оценка рисков, факторы риска, уровень риска.

**Abstract:** *In this article, the determination of internal audit measures in the public sector, the determination of the level of risks related to internal audit objects by the internal audit service, the development of a plan of measures for internal audit, the assessment of the risks of internal audit measures in the public sector and problem identification process. and issues that may arise during internal audit activities are*

*discussed. And the article also considered the issues of organizing an internal audit to increase the effectiveness of solving company problems and investment attractiveness. From an economic and scientific point of view, the above problems and proposed solutions are not bad, but rather important to study.*

**Key words:** *internal audit, internal control system, control procedures, financial reporting, internal audit service, risk assessment, risk factors, risk level.*

## KIRISH

O'zbekiston moliya vaziri "Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'ini qabul qildi.

Bu hujjat vazirlik va idoralarda ichki audit o'tkazishni, audit jarayonida hujjatlarni rasmiylashtirishni, natijalar bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish tartibini belgilaydi va kerakli hujjat shakllarini aks ettiradi.

Audit obektining xavf darajalarini aniqlashda quyidagi xavf omillaridan foydalaniladi:

- obektning yillik moliyalashtirish hajmi;
- obektga ajratilgan mablag'lar o'zlashtirilishi;
- obektda rahbariyat va moliya-xo'jalik tuzilmalari xodimlari qo'nimsizligi;
- obektning moliyaviy faoliyatiga oid jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari;
- faoliyat yuritayotgan xodimlar soni;
- o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni;
- tuzilgan shartnomalar soni;
- ichki moliyaviy nazorat va ichki audit tadbiri amalga oshirilmagan davr;
- debitor va kreditor qarzdorlik hajmi o'sishi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida, korxonalar faoliyati haqida ishonchli ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyoj kuchayib borayapti. Korxonalar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar ularning buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarida ifodalangan. Ushbu hisobotlardan foydalanish ta'sischilar, aksiyadorlar, soliq organlari, banklar, etkazib beruvchilar va boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga korxonaning joriy moliyaviy holatini, faoliyati samaradorligini va rivojlanish istiqbollarini baholash imkonini beradi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishonchli, xolis va amaldagi qonunchilikka mos bo'lishi zarurdir. Audit bu tashkilotlar uchun muhim ma'lumotlarni olishda yordam beradi.

Audit mustaqil moliyaviy nazoratdir va uning maqsadi tadbirkorlik subyektlarining buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarining ishonchlilagini va moliyaviy (xo'jalik) muomalalarining amaldagi qonunchilikka muvofiqligini aniqlashni o'z ichiga oladi. Audit faqat kompaniyaning moliyaviy hisobotlarining ishonchlilagini tekshirishni emas, balki balanslarni, auditorlar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy hisobotlarni tekshirishni va xo'jalik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ham ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Endilikda byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini yo'qotish jarayonlari amalga oshirilmoqda, bu hamkorona chora-tadbirlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinayotganini ko'rsatadi. 2013 yilning 26-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 2021 yilning 27-avgustidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6300-sonli farmoni, 2021 yilning 5-maydagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 280-sonli qarori, 2022 yilning 1-avgustdagi 416-sonli Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida qarorlar, 2022-yil 27-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan, ro'yxat raqami 3406 "Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston respublikasi Moliya vazirining buyrug'i tasdiqlandi. Ushbu me'yoriy hujjatlarga asosan davlat tashkilotlarida ichki audit xizmati bo'limlari tashkil etildi.

Ichki audit faoliyati byudjet intizomini mustahkamlash, qonun hujjatlari buzilishining oldini olish, vazirlik va idoralarda xarajatlar samaradorligini baholash, hujjatlar ijrosini ta'minlashga yo'l tutgan bo'lib, ular quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Ichki audit tadbiri ichki auditning yillik rejasi bo'yicha amalga oshiriladi va uni amalga oshiruvchi guruh bu haqda ichki audit subyektiga yozma xabar beradi. Bu, xabarnoma ichki audit tadbiri boshlanishidan kamida besh ish kuni avval ichki audit obyektining rahbariga yuboriladi. Rejadan tashqari o'tkaziladigan ichki audit tadbiri to'g'risida ichki audit obyektining ichki audit tadbiri o'tkazilishidan kamida bir ish kuni oldin xabardor qilinadi. Mazkur xabarnomada ichki audit tadbiri davomida bajariladigan ishlar to'g'risida qissacha ma'lumot, ichki audit tadbirini o'tkazishda taqdim etilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlar ro'yxati hamda ularni taqdim etish muddatlari, ichki audit tadbirini o'tkazish guruhining a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Ichki audit tadbirini o'tkazish to'g'risidagi xabarnoma ichki audit xizmati rahbari tomonidan imzolanadi. Ichki audit tadbirini o'tkazish to'g'risidagi xabarnomada so'ralgan ma'lumot va hujjatlar ichki audit obyekti tomonidan uch ish kuni ichida ichki audit tadbirini o'tkazish guruhiqa taqdim etiladi.

#### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ichki audit tadbirlarini rajareshrtirish eng muhim jarayonlardan biri bo'lib, bu jarayonda auditordan katta bilim, malaka talab qilinadi. Chunki aynan audit tadbirlarini samarali, natijali bo'lishi to'g'ri rejalahtirilgan dasturga bog'liq. Ichki audit tadbirlarini o'tkazishdan asosiy maqsad vazirlik va idoralarda budget intizomini mustahkamlash va budget to'grisidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlarini profilaktika qilish, budget xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini baholash hamda ichki audit faoliyati sohasidagi hujjatlar ijrosini ta'minlashdan iborat.

Birgina Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligiga bergen axborotiga ko'ra, vazirlik tizimida ichki audit xizmatlari tomonidan 2021 yilda o'tkazilga profilaktika tadbirlari natijalariga binoan 479 ta ta'lim muassasalarida jumladan 56 ta oliy ta'lim muassalari, 423 ta professionlar ta'lim muassalarida moliyaviy faoliyatga doir monitoring va profilaktika

tadbirlari o'tkazilgan. O'tkazilgan profilaktika tadbirlari natijasida 49 ta oliy ta'lim muassasalarida 9,4 mld. so`mlik, 253 ta professionlar ta'lim muassalarida 7 mld. so`mlik, jami 302 ta ta'lim muassasalarida 16,4 mld. so`mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangan. Bunda 3,3 mld. so`mlik qismi ichki audit boshqarmasi tomonidan, 7 mld. so`mlik qismi hududiy ichki audit xizmatlari hamda 6,1 mld. so`mlik qismi oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan bosh auditorlar tomonidan o'tkazilgan profilaktika tadbirlari natijasida aniqlangan.

Ushbu qayd etilgan 16,4 mld. so`mlik moliyaviy xato va kamchiliklarning 11,4 mld. so`mlik qismi o`rganish jarayonida oldi olingan, 2,3 mld. so`mlik qismi esa, keyingi oylarda hisob-kitob qilish uchun unduruvga qaratilgan. Bundan tashqari, 2 ta oliy ta'lim muassasasi hamda 10 ta kasbiy ta'lim nuassasalarida o'tkazilgan profilaktika tadbirlarida aniqlangan 2,7 mld. so`mlik xato va kamchiliklarda jinoyat alomatlari mavjudligi sababli o`rganish materiallari rasmiylashtirilib, huquqiy baho berish va qonuniy chora ko`rish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan. O'tkazilgan profilaktika tadbirlari jarayonida aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklarni 3 turga bo`ladigan bo`lsak, birinchi turga texnik xatolar, ikkinchi turga mas'uliyatsizlik va sovuqqonlik natijasida qilingan xatoliklar, uchinchi turdag'i xato esa qisqacha qilib aytganda ongli ravishda g`araz maqsadni ko`zlab qilingan xato hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tilgan moliyaviy qonun buzilishga yo'l qo'yilgan mas'ullarning bilib yoki bilmasdan xato qilishlari bu ularni javobgarlikdan ozod etmaydi.

Davlat sektoridagi ichki audit tadbirlari risklarni baholash jarayonini o'z ichiga oladi. Risklarni baholashning ma'nosi, tegishli xavflarni aniqlash va tahlil qilish orqali tashkilot maqsadlariga erishish imkoniyatini tushunishdir. Risklarni baholash jarayonida ichki audit, turli xavflarning ehtimoli va potentsial ta'sirini aniqlaydi va baholaydi. Keyinchalik, qoldiq riskni boshqariladigan darajada bo'lishini ta'minlash uchun ular xavfni kamaytirishda ichki nazoratning qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilganligini aniqlaydi va baholaydi.

Qoldiq xavf, nazorat yoki protseduralar amalga oshirilgandan so'ng biror narsa sodir bo'lishining xavfi. Ichki audit obyektlari xavf tahlili asosida baholanadi va xavf darajasi aniqlanadi. Xavf omillarini belgilashda, ichki audit obyektining moliyaviy faoliyatida xavflarning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi omillar hisobga olinadi. Ichki audit xizmati tomonidan ichki audit obyekti xavf darajalarini aniqlashda quyidagi xavf omillaridan foydalilanadi:

- Ichki audit obyektining yillik moliyalashtirish hajmi;
- Ichki audit obyektiga ajratilgan mablag'lar o'zlashtirilishi;
- Ichki audit obyektida rahbariyat va moliya-xo'jalik tuzilmalari xodimlarining qo'nimsizligi;
- Ichki audit obyekti moliyaviy faoliyatiga oid jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari;
- Ichki audit obyektida faoliyat yuritayotgan xodimlar soni;

- Ichki audit obyektining moliyalashtirish manbalari soni;
- Ichki audit obyektida o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni;
- Ichki audit obyektida o'tgan davr mobaynida tuzilgan shartnomalar soni;
- Ichki audit obyektida so'nggi besh yil ichida moliyaviy nazorat va ichki audit tadbiri amalga oshirilmagan davr;
- Ichki audit obyektining debitor qarzdorlik hajmining o'sishi;
- Ichki audit obyektining kreditor qarzdorlik hajmining o'sishi.

Ushbu xavf omillari, har qanday ichki audit obyektining riskni baholash uchun zarurdir. Masalan, yillik moliyalashtirish hajmi, moliyalashtirish manbalari soni, bitimlar soni va shartnomalar soni kuzatilishi kerak bo'lgan muhim ko'rsatkichlardir. Bundan tashqari, moliyaviy-iqtisodiy tuzilmalar rahbariyati va xodimlarining qobiliyatsizligi ichki audit tartib-qoidalarining noto'g'ri ekanligini ko'rsatishi mumkin va ularni hal qilish zarur. Nihoyat, debitorlik qarzlari yoki kreditorlar qarzlarining ortishi ichki audit tartib-qoidalariga e'tibor berilmayotganligini ko'rsatishi mumkin va ularni hal qilish zarur.

#### XULOSA

Barcha ko'rsatilganlarni xulosalaylik, muntazam ravishda amalga oshiriladigan ichki audit tadbirlari, barcha hajmdagi tashkilotlar uchun juda muhimdir, chunki ular potentsial nosozlik joylarini aniqlash va kutilmagan yo'qotishlar yoki xatolar xavfini kamaytirishga yordam beradi. Yuqorida sanab o'tilgan xavf omillarini hisobga olgan holda va ichki audit tizimini muntazam ravishda ko'rib chiqish orqali, tashkilotlar moliyaviy xavfsizligini ta'minlashi mumkin.

Barcha foydalanuvchilar guruhlari ichki nazorat va buxgalteriya xizmatlari tomonidan yaratilgan ma'lumotlarga teng kirish imkoniyatiga ega emaslar. Odatta, ma'muriyat axborotdan cheksiz foydalanish va unga kirish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun, ichki nazorat iyerarxiyaning turli darajalarida, uning to'liqligi, shakli va mazmuni bo'yicha turli talablar bilan boshqaruv maqsadlari uchun zarur axborotni taqdim etish imkoniyatini amalga oshirish uchun tashkil etilishi kerak. Xo'jalik yurituvchi subyektning boshqaruv tizimidagi ichki nazorat faqat boshqa boshqaruv funksiyalari bilan birgalikda samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin. Nazorat, buxgalteriya va analitik jarayonlarning aloqasi boshqaruvning axborot ta'minoti muammosini eng yaxshi hal qilish imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojatnomasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori. Toshkent sh., 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 sonli.
3. Sarvarbek Rasuljonovich Abduazizov (2021). DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI. Scientific progress, 2 (8), 250-256.
4. Abduraximov, Boburjon Umarjon O'g'li, Qudbiyev, Nodir Tohirovich, & Mominov, Ikromjon Luxmonjon O'g'li (2021). AYLANMA MABLAG'LARNI BOSHQARISH TIJORAT KORXONASI MUVAFFAQIYATINING ASOSI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 724-733.
5. Qudbiyev, N. T. (2021). Xalqaro moliyaviy hisob standartlariga o'tish dolzarbligi/Relevance of the transition to international financial accounting standards. SJ international journal of theoretical and practical research, 1(2), 56-64.
6. Durdona Adashboy Qizi Razzaqova (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI AVTOMATLASHTIRISHNING ROLI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 2 (8), 243-249.
7. Tohirovich, Q. N. (2021). International financial accounting standards in Uzbekistan. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 328-333